

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 3 (67324)
2021-yil 18-yanvar

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

VAZIR E'TIROFI

Samarqand shahridagi 50-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Nazira Davroning internet tarmog'idagi «First2College» dasturini Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov yuqori baholadi va o'zining qo'shimcha takliflarini bildirdi. Naziraning loyihagini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, amalga oshirilishida yordam berilishini ta'kidladi.

Uning nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qib, yuqori malaka va tajriba to'plab, kelgusida mamlakatimizda sohalar

rivojiga o'z hissasini qo'shish, tengdoshlarini yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanishlari uchun ko'maklashish bo'yicha tashabbuslari, bilim olishga chanqoqligi, teran fikrlashi xorijiy mutaxassislar tomonidan e'tirof etildi. U AQSHning Kolumbiya universitetiga muddatidan oldin imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi.

Vazir Nazira Davroning ilg'or tashabbusini e'tirof etib, unga minnatdorlik bildirdi.



2021-yil uchun obuna davom etmoqda!

Nashr
ko'rsatkichi
198



Nashrimizga «O'zbekiston pochta» AJ va «Matbuot tarqatuvchi» AKning hududiy filiallarida obuna bo'lishingiz mumkin.

Siz uchun yana bir yangilik:

«Tong yulduzi» gazetasi mobil ilovasi ishga tushdi!

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks: 100 011. Tel./faks: (0-371) 244-63-08

www.tongyulduzi.uz, tongyulduzi1929@umail.uz

Telegram: t.me/tongyulduz

Mazkur ilovani Play Marketdan yuklab olib, mutolaani istagan vaqtda amalga oshirish uchun Payme va CLICK to'lov tizimlari orqali obuna bo'lishni unutmang!

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati Kengashi hamda viloyat Milliy gvardiya boshqarmasi bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlarni ruhan tarbiyalash, jisman chiniqtirish, ular qalbida vatanparvarlik, fidoyilik, yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, harbiylik kasbiga muhabbat uyg'otish maqsadida 30 nafar mahalliy «Sport» yo'nalishi sardorlari ishtirokida «Harbiy bilan yonma-yon» loyihasi amalga oshirildi.



HARBIY BILAN YONMA-YON

Loyihada men ham Sirdaryo viloyati «Ittifoq» sardori sifatida ishtirok etdim. Aslida, mening harbiylarga bo'lgan hurmatim cheksiz, chunki otam harbiy. Shuning uchun ham bu kasb mashaqqatini, harbiylar zimmasidagi burch va vazifalarni tengdoshlarimdan ko'ra yaxshiroq bilaman. Ushbu loyihada ham, aslini olganda, milliy gvardiyachilar kiyimini kiyish imkoniyati borligidan quvongandim, lekin maxsus kiyim juda og'ir ekanligi bois, kun davomida shu holatda harakatlanish ancha qiyinchilik tug'dirdi. Shunda angladimki, bu kiyimni kiyish, unga munosib tarzda sabrli, matonatli bo'lish har kimning ham qo'lidan kelavermas ekan!

Muhimi, kun davomida harbiy tayyorgarliklar, chiniqish mashg'ulot-

lari, qurol-aslahalarni ishlatish, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish, dala o'quv mashg'ulotlari, jangovar holat, har qanday vaziyatga tayyor bo'lish kabi ko'plab ko'nikmalarga ega bo'ldik.

Loyiha yakunida gulxan atrofida o'tirdik. Go'yoki, tog'ni urib talqon qilgandek charchabmiz. Gulxanga termilib o'tirib, mas'uliyat, sabr, matonat, ishtiyiq, tinimsiz harakat, chidamlilik kabi burch va fazilatlar haqida, harbiylikning nechog'li sharaflilik kasb ekanligi haqida o'yladim va bu kasb egalari bo'lgan hurmatim yanada oshdi.

Nigora ORIFJONOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi
5-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

SIZ QANDAY O'QITUVCHISIZ?

Bu savol har bir o'qituvchini o'ylantirib qo'yishi tabiiy, albatta. Bugun ushbu savolni har birimiz o'z-o'zimizga beradigan payt keldi. Chunki bugun o'qituvchi uchun yaratilayotgan sharoitlar barchani havasini keltiradigan darajaga yetdi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimizning Oliy Majlisa Murojaatnomasida ham o'qituvchilarga yaratilayotgan qulayliklarga, ayniqsa, sinf rahbarlarining mehnatlari alohida e'tirof etildi. «Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi», degan g'oya asosida keng ko'lami ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Unda, har birimizning zimmamizga vazifalar yuklandi. Ushbu Murojaatnomadan so'ng har bir o'qituvchi yanada ko'proq o'z ustida ishlashi, ta'lim-tarbiyani zamonaviy

bilim va tajribalar asosida olib borishi kerak bo'ladi. Men ham onatili va adabiyot fanidan o'quvchilarga saboq beraman. O'z fanim bo'yicha ko'plab innovatsion yangiliklarni amaliyotga joriy qilishga intilaman. Darslarni turli o'yin va viktorinalar asosida o'tishni yo'lga qo'nganman.



Ushbu Murojaatnomadan o'zimga chiqqan xulosam shu bo'ldiki, bizga Prezident ishonmoqda, bizga xalqimiz ishonmoqda. Shuning uchun ham har birimiz astoydil harakat qilib, ushbu ishonchni oqlashimiz kerak bo'ladi.

Bizning qanday o'qituvchi ekanligimizni esa shogirdlarimizning kamoli, ularning kelgusida egalayotgan yuksak marralari belgilab beraveradi.

Go'zal BO'TAYEVA,
Jizzax viloyati,
Do'stlik tumanidagi
7-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi

FIZIKADAN OCHIQ DARS



Yaqinda fizika fanidan 8-sinf o'quvchilari uchun ochiq dars tashkil etildi. «Elektr tokining ishi va quvvati» mavzusida tashkillashtirilgan mazkur darsda o'tgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuga kirib borish maqsadida o'quvchilarim «Blits savollar»ga javob berishdi. Uch kichik guruhga bo'lingan jamoa sardorlari yangi mavzu yuzasidan tushuntirishlar berishdi. O'quvchilar fanga doir qiziqarli krossvordlarni yechishdi.

Dars davomida faol ishtirok etgan har bir jamoa a'zolari «Rag'bat» kartochkalariga ega bo'lishdi. Darsga Aynura Jumamuratova, Zulfiya Joldasbayeva, Jasur Saparbayevlar eng faol o'quvchilar qatoridan joy oldi.

Shartlar o'z nihoyasiga yetgandan so'ng mavzuni umumlashtirgan holda yakuniy

xulosalarni berdim. Shuningdek, ko'p yillik tarixga ega bo'lgan fizika fanining jamiyat rivojida tutgan o'rni, bugungi kunda fanda yuz berayotgan yangilik va kashfiyotlar haqida to'xtalib o'tdim.

Maktab direktori Sharapatdin Shaniyazov hamda o'qituvchilardan Paraxat Nurabullayev, Baxtigul Doshmurotovalar

darsni kuzatib borishdi. Yakunida esa kuzatuvchilar dars haqida o'zlarining fikrlarini bildirishdi.

Gulzada KARAMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli
tumanidagi 26-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi

O'zing ilm-u ziyodirsan, Samarqand, Quyoshdek serjilodirsan, Samarqand!

Samarqand shahridagi 64-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Alijon O'lmasov poytaxtimizda muaytay sport turi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro turnirda 1-orinni egalladi.

KUCHLI UCHLIK



Respublikamiz o'quvchilari o'rtasida ELPC xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkazilgan ingliz tili bo'yicha «National Spelling Bee» Respublika milliy musobaqasi final bosqichi bo'lib o'tdi. Mazkur tanlovda Samarqand viloyatidan 3 nafar o'quvchi ishtirok etib, ularning 3 nafari ham sovrindorlar qatoridan joy egallashdi.

Shahrizoda AMINOVA, Kattaqo'rg'on tumani, 3-umumta'lim maktabi, Mohinur ISOMIDDINOVA, Samarqand shahar, 80-umumta'lim maktabi, Mahmud HAMRAYEV, Samarqand shahar, 33-umumta'lim maktabi.

XALQARO TURNIR G'OLIBI

Sportchimizning g'alabasi qo'shaloq xursandchilikka aylandi. Unga O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan «O'zbekiston sport ustasi» guvohnomasi topshirildi.

Alijon ona Vatanimiz bayrog'ini xalqaro arenalarda baland ko'tarishiga tilakdoshmiz.



Nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo bo'ylab har bir iqtidor egasi o'z salohiyatini sinab ko'rish uchun turli tanlovlar-u bellashuvlar o'tkazilmoqda. Ana shunday tanlovlardan biri ELPC xalqaro olimpiadalar tashkiloti tomonidan Zoom dasturi orqali onlayn tarzda HKIMO Gong Kong xalqaro matematika olimpiadasi 2020-yilning avgust oyida o'tkazilgan edi.

Ushbu olimpiadaga Gong Kong xalqaro matematika akademiyasi asos solgan bo'lib, unda Singapur, Malayziya, Tailand, Indoneziya, Filippin, Avstraliya, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'iston kabi dunyoning



20 dan ortiq nufuzli davlatlarning maktab o'quvchilari qatnashadi.

2020-yilda ilk marta O'zbekistondan ham 115 nafar o'quvchi ushbu olimpiadada ishtirok etdi. Narpay tumanidagi 47-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Mashhurbek Ziyodul-layev bronza medalini qo'lga kiritdi. Mashhurbek ota-onasi shu maktabning o'qituvchilari ekan. Jonkuyar ota-ona o'g'lining maktabdagi faoliyatini ham muntazam kuzatib boradi. Ota-onasi hamda ustozlari Ibdodat O'roqovanning bu sa'y-harakatlari bejiz ketmayapti, albatta.

Xonzoda ODILOVA, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 35-umumta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi

MUROJAATNOMANI O'QIB...

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqimizga qilgan Murojaatnomasida bayon qilingan fikr-mulohazalarni atroflicha muhokama qildik. Murojaatnomadagi ta'lim sohasini rivojlantirishga oid belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyati atroflicha tahlil qilib, kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shildi.



Biz keng ko'lamlilik demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

46 yillik pedagogik faoliyatim davomida soha rivojiga oid ko'plab qabul qilingan Qarorlar, Farmonlar kutilgan natijani bermadi.

Lekin ushbu Murojaatnoma zimmamizdagi mas'uliyatni yanada oshirdi. Keksa bir onaxon, ustoz sifatida Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahar maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari nomidan yuksak tashabbus uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildiraman.

Zamira ZARIPOVA, Kattaqo'rg'on shahar XTB boshlang'ich sinflar metodisti



– Dildoraxon, suhbatimizni poytaxtimizning qoq markazida joylashgan mazkur kutubxonaning tarixi haqida qisqacha ma'lumot bilan boshlasak. Bunday ma'lumot kitobsevar bolajonlar uchun qiziqarli bo'ladi, nazarimda.

– Albatta, chunki chin ma'nodagi kitobxonni kitob bilan bog'liq har qanday ma'lumot qiziqtirishi, tabiiy.

«TURON» kutubxonasi XX asr boshlari, aniqrog'i, 1913-yilda toshkentlik ma'rifatparvar jadidchilarning shu nomdagi jamiyati asosida tashkil bo'lgan. Ilk ochilgan yillarda kutubxona jamg'armasida 3 ming nusxaga yaqin adabiyotlar bo'lib, ularni Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Yusuf Aliyev kabi tanikli o'zbek ma'rifatparvarlari o'z shaxsiy kutubxonalaridan sovg'a qilishgan. Ular shoir, dramaturg, jurnalist Abdulla Avloniy boshchiligida «TURON» jamiyatiga asos solishgan. 1918-yilda u mustaqil ommaviy kutubxona sifatida ochilgan. 30-yillarga kelib kutubxona a'zolari ta'qib ostiga olingan, u yerdagi ko'plab kitoblar

102 YILLIK KUTUBXONA

Qay jihatdan olib qarasak ham, kitobning, mutolaaning yosh avlod kamolotida tutgan o'rni beqiyos. Demak, bu bebaho durdonalar jamlanadigan maskan – kutubxonalarning ham yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati juda muhim. Shunday ekan, kutubxonalar haqida ko'proq yozishimiz, o'quvchilarimizni ularning faoliyati bilan yaqindan tanishtirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ana shunday ezgu niyatda «TURON» axborot-kutubxona markazi rahbari Dildora ABDUAZIZOVANI suhbatga chorladik.



uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanday?

– Yaqin-yaqinlargacha kitobxonlar bizning «Ohangrabo» ko'chasida joylashgan binomizga o'zlari uchun zarur adabiyotlarni izlab borishar, bu esa ularga ancha qiyinchilik tug'dirar edi.

2019-yilning 26-dekabr oyida

kanal va guruhlar ishga tushirildi. Ayni paytda Telegram ilovasida yangi kelgan adabiyotlar, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalari, kutubxona hayotiga oid yangiliklar bilan tanishtirib boruvchi «@t.me/turonlib» va o'zbek tilidagi asarlarni foydalanuvchilarga yetkazib boruvchi «@t.me/turonuz-book» kanallari, «@turonlib_bot» boti, bolajonlar uchun maxsus tashkil etilgan «@t.me/turon_bolalar» kanali faoliyat olib bormoqda.

– Odatda, kutubxonalarning eng gavjum joyi «Bolalar bo'limi» hisoblanar edi. Bu yerda esa aksincha holatga duch keldik. Bu holga karantin sababmi yoki guvohi bo'layotganimizdek, bolalarbol kitoblarning kamligimi?

– Unisi ham, bunisi ham. Karantin tufayli ko'plab kitobsevar bolajonlarimiz onlayn tarzda kitob o'qishyapti. Qolaversa, bo'limdagi kitoblarning soni ham unchalik ko'p emas, bor-yo'g'i 1106 ta kitobimiz bor. Yangi kitoblarni keltirish va ro'yxatga qo'yish ishlari davomli ravishda olib borilyapti... «Kitob sahifalarini bima-bir varaqlab, hiddan bahramand bo'lib o'qishning gashti bo'lakcha-da», deyidigan kitobxonlarimiz soni ham ortyapti. Yangi binomizning birinchi qavatida chikich va maktab yoshidagi bolalar uchun alohida bo'lim mavjud. U yerda jajji kitobxonlarga yangicha uslubda xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yganmiz. Bu bo'limda bolalar kitobxonligi borasida dunyo kutubxonachiligi tajribasiga tayangan holda bolalar adabiyotini yaxshi biladigan mutaxassis faoliyat ko'rsatadi. U har bir yosh kitobxoniga alohida yondashadi. Bolaga uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan asar yoki qo'llanma tavsiya qilinadi...

– Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlar

ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilishdek muhim tashabbusni qo'llab-quvvatlashga oid taklif va mulohazalaringiz.

– Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan 5 ta muhim tashabbus bugungi kunda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kutubxonamizda mazkur tashabbus doirasida reja asosida ma'rifiy tadbirlar o'tkazish ko'zda tutilgan. Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq va Qibray tumanlarida joylashgan umumta'lim maktablarida «Davra» adabiy to'garagi, kitobxonlik klublari tashkil qilganmiz. Klub mashg'ulotlarimiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda olib boriladi. Bunday ko'chma kitob ko'rgazmalari, yozuvchi va shoirlar bilan jonli muloqotlar kitobxonlar safining yanada oshishiga xizmat qilyapti. Shuningdek, kutubxonamizda tasviriy san'at va musiqaga ixlosmand yoshlar uchun alohida bo'lim tashkil etish ishlari olib borilyapti. Tasviriy san'at va xorijiy tillarni o'rganish to'garaklarini yo'lga qo'yish ishlari ham boshlab yuborilgan.

– Respublika bolalar va o'smirlar nashri – «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga tilaklaringiz.

– «Tong yulduzi» bir necha avlodni tarbiyalab voyaga yetkazgan ma'rifiy

nashr hisoblanadi. Bu gazetani o'qib ulg'aygan o'quvchilar orasidan ko'plab mashhur insonlar, tanikli shoir va yozuvchilar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Bugungi kunda ham ushbu nashr minglab bolalar va o'smirlarni tarbiyalayapti. Istagim, gazeta o'quvchilari safi kengaysin, bolalikdagi qadrdon nashrimiz minglab emas, millionlab xonadonlarga kirib borsin!

– Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur!

Feruza JALILOVA suhbatlashdi



olib ketilib, o'tda yoqilgan. Qatag'on yillarida jadidchi bobolarimiz kitoblarini o'qiganlar ham hibsga olingan. Bunday qabihliklar so-

biq sho'ro hukumati tomonidan riyokorona amalga oshirilgan. 1950-yillardan so'ng kutubxonada bir qadar erkin muhit hukm surgan. Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi adiblarimiz oqlanganlaridan keyin ham ularning asarlarini qayta nashr etish ishlari ko'p qiyinchiliklar bilan amalga oshirilgan. Bu ishlarga bir qator millat fidoyilari – adiblarimiz bosh-qosh bo'lishgan.

Kutubxona bir qator Fan va madaniyat arboblarning sevimli maskani bo'lib, G'afur G'ulom, Oybek, Mirkarim Osim kabi adiblar, O'zbekiston qahramonlari Ozod Sharafiddinov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Zikir Muhammadjonov, adabiyotshunos olimlar Naim Karimov, Shuhrat Rizayev va boshqalar undan keng foydalanishgan.

– Kutubxonaning bugungi holati, u yerda kitobxonlar

mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan poytaxtimiz markazida qad rostlagan «TURON»

kutubxonasi yangi binosining ochilishi ko'p

ming sonli kitobsevarlar uchun quvonchli voqea bo'ldi. Mo'jaz mumtoz me'morchilik namunasi bo'lgan yangi binomiz kitobxonlar hayotida yangi sahifa ochdi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugun bu yerda kitobxonlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Foydalanuvchilar uchun internet tarmog'iga ega ikki katta zal, katta hamda chikich tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan zallarimiz mavjud. Birinchi qavatda joylashgan Abdulla Qodiriy memorial muzeyidan yoshlarimiz qadami uzilmaydi. Nurxonamizda imkoniyati cheklangan kitobxonlar uchun ham sharoitlar yaratilgan. Dunyoda bo'lgani kabi bizning yurtimizda ham pandemiya tufayli ayrim cheklovlar joriy qilinganidan xabaringiz bor. Ammo kutubxonamizda karantin kunlarida ham kitobxonlarga qulayliklar yaratish borasida bir qator internet

Kitob – tafakkurning tolmas qanoti.

Adabiyot – ma'naviy kamolot ko'zgusi.

Mutolaa – yaxshi ustoz...



MAKTABGA SHOIRA KELDI

**Shu Vatanga munosib,
Farzand bo'lish ahdimiz...**

**Beg'ubor chehralarida samimiyat balqib turgan
bolajonlar tadbir mehmoni – Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, shoira Zahro Hasanovani yuqoridagi she'ri
bilan kutib olishdi.**

Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 3-«F» va 3-«E» sinf o'quvchilari, ustozlari Xalq ta'limi a'lochisi Aziza Jamolova va Iroda Mahkamova tashabbusi bilan o'tkazilgan «Kitob – aql qayrog'i» tadbirida «Ko'z munchog'im» she'riy to'plamidan yod olgan «Ozoda bola», «Har kun – bolalar kuni», «Men

singlimga tarjimon», «Bola-lik uy» kabi yigirmadan ortiq she'rlarni ifodali aytib berdilar. «Hur Vatanning farzandiman» qo'shig'ini ijro etdilar. Milliy raqslar esa tadbirni yanada fayzli o'tishiga, kitobxon, san'atsevar o'quvchilarning iste'dodlarini namoyish etishiga imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, Faxriddin Rustamov, Omina G'afurova,

Robiya Hamidova, Mubina Asomiddinova, Muhammaddiyov Yo'ldoshevlar faolligi bilan ajralib turdilar.

– Maktabimizda bunday ijodiy uchrashuvlar tez-tez o'tkazilib turiladi, – deydi Aziza Jamolova. – Kitobga, mutolaaga mehr o'quvchini komillik sari yetaklaydi, ularni ezigulik, yaxshilik diyoriga eltadi. Gazeta va jurnallar bizning doimiy do'stimizga aylangan.

Tadbir so'ngida bolalar shoiri Zahro Hasanova bolajonlarga «Gulxan» jurnalini sovg'a qildi.

**Mahmuda VALIYEVA,
Xalq ta'limi a'lochisi**

SEVIMLI NASHRGA MAKTUB

**Assalomu alaykum,
«Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari!**

Men boshlang'ich sinf lishida qator yutuqlarga o'qituvchisiman. erishib kelmoqdalar.

Gazetaning har bir sonini o'quvchilirim bilan birgalikda qoldirmasdan o'qib boramiz.



Bu yil ham birinchilardan bo'lib gazeta obuna bo'ldik. Zero, o'quvchilar bilimni yuksaltirishda



O'quvchilarning dunyoqarashi kengayishida «Tong yulduzi» gazetasining o'rne beqiyos.

Maktabimizda iqtidorli o'quvchilar talaygina.

Jumladan, 6-«B» sinf o'quvchisi E'zoza Ilhomova «Yosh kitobxon» tanlovining tuman bosqichida faol ishtirok etib, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

4-«B» sinf o'quvchilari Yusufbek Muhammadiyev, Mohinur Zoirova va Aziza Baxtiyorovalar sport yo'na-

va ular iste'dodini yuzaga chiqarishda mazkur gazeta o'z o'rniga ega!

**Zuhra G'YOSOVA,
Jizzax viloyati, Sharof
Rashidov tumanidagi
10-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi**

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

RIDDLES

It grows up under the ground,
It's orange and yellow.
We eat it with deserts,
And add it to the plov.

It's your friend,
It teaches us look.
We read and learn
Because of...

It's world languages,
American and British.
We're learning and love it,
And try to speak in...



**Khulkar ISMAILOVA,
Tashkent city, Bektemir district
School № 289 6th grade**

BAHO UCHUN O'QIMAYMIZ!

**Men bu yil maktabni tamomlayman. Ta'lim maskanimizda hamma meni
hurmat qiladi. Bilimim, jamoat ishlaridagi faolligim uchundir balki...**

Biz ayni damda oliy o'quv yurtlariga kirish arafasidamiz. Tengdoshlarimning aksariyati qo'shimcha kurslarda tahsil olishyapti. Bu holat meni ko'p o'yantiradi: nima uchun 11 yil maktabda tahsil olib, oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun yana qo'shimcha kurslarga borishimiz kerak? 11 yil mobaynida olgan bilimlarimiz kamlik qiladimi? Yoki ustozlarimiz puxta bilim berisholmayaptimi? Balki o'zimiz bo'shlik qilgandirmiz?! Aslida, muammo nimada?

Nazarimda, har bir sinfda o'zlashtira olmaydigan, o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchilar va a'lochilar bo'ladi. Ba'zilar maktabga majburiyat yuzasidan – kun o'tkazish uchungina keladi. Ba'zilar esa yaxshi o'qishni xohlashadi-yu, lekin bunga erisholmaydi. Ular o'zlariga ko'pincha: «A'lochi bo'lish uchun nima qilish kerak?» degan savolni berishadi. Bunday o'quvchilar, avvalo, nega a'lochi bo'lishni xohlashlarini hal qilib olishlari kerak. Ayrimlar faqat a'lo baho olish uchungina o'qishadi. Uy vazifalarini kimlarningdir ko'magida bajarib, matnlarni yodlab oladiganlar ham yo'q emas. Aziz o'quvchilar, uy vazifalariga ko'proq vaqt sarflang. Balki a'lo baho ololmassiz, muhimi bilim-ku. Shunday qilsangiz, ishonchim komil, oliy o'quv yurtlariga o'z bilimingiz bilan, albatta, kirasiz.



Yana bir jihat, yaxshi baho olish uchun ko'pincha bizga qaysidir fanni o'zlashtira olmaslik yoki o'qituvchidan qo'rqish hissi to'sqinlik qiladi. Bunday holatda ham faqat o'zingizga ishonib. O'qituvchilardan qo'rqish emas, ularni hurmat qilish kerak. Tushunmagan faningiz bo'lsa, o'qituvchidan yordam so'rasangiz, ustozlar bor bilimini sizdan ayamaydi.

A'lochi bo'lolmaslikning yana bir sababi, ba'zilar maktabda ular hamma darslarni tinglaydi, yozadi, lekin uyda o'tilgan mavzularni takrorlamaydi. Aslida, o'tilgan darsni, teoremlar va qoidalarni ko'p takrorlash, yodlash kerak. Ularni shunchaki yodlash emas, ma'nosini tushunib, yodlash kerak. Shundagina ular xotirada bir umrga muhrlanadi. Biror darsni tushunish uchun sa-

vol berishdan yoki yordam so'rashdan qo'rqmaslik kerak. Ko'p o'qituvchilar hatto savollardan mamnun bo'lishadi. Chunki bu holat o'quvchilar o'z darsiga qiziqishi borligidadir.

Bir so'z bilan aytganda, a'lochi o'quvchi bo'lish uchun ko'p o'qish, mehnat qilish kerak. Muhimi, maktabga a'lo baho olish uchungina emas, balki bilim olish uchun borish kerak!

**Marjona JO'RAQULOVA,
Qarshi muhandislik iqtisodiyoti
akademik litseyi o'quvchisi**



BU VATAN MENIKIDIR!

Quyoshi charaqlaydi,
Osmoni yaraqlaydi.
Musaffo, toza havo,
Kuch berar tanga davo.

Tabiati chiroyli,
Gulzorlari iforli.
Bu Vatan menikidir,
Bu Vatan senikidir!

Shirin USMONOVA,
Samarqand shahridagi
49-umumta'lim maktabining
2-«G» sinf o'quvchisi

BAXTIMIZ BOG'IDA UNGAN CHECHAKLAR



Qalbmning qo'rida sizgadir kalom,
Mehribon ustozlar salom, assalom.
Sog'inchim yetaklar faqat siz tomon,
Bizlarni suyguvchi sizlarsiz mudom.

Bugun shodliklarim yetar samoga,
Bugun bayramingiz, qutlayman dildan.
Masofa bo'lsa-da, biroz olisdek,
Tabrigim yo'llayman sizga ko'ngildan.

Baxtimiz bog'ida ungan chechaklar,
Poyingiz nurlarga, gullarga to'lsin.
Vatanning ishonchi, g'ururi sizlar,
Yuzingiz doimo quvonchdan kulsin.

Saodat ABDULLAYEVA,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 169-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

Kuzgi ta'tilda akam bilan bobom-
larnikiga bordik. Buvimning mushugi
yonimizga kelib, akamga suykala
boshladi. Men mushuklardan qo'rqar
edim.

– Oling bu mushukni! – deb baqirib
yubordim.

– Barakalla! Katta savob ish qil-
dinglar!

Biz o'sha o'zimiz qutqargan qu-
yonchani qog'oz qutida parvarishlay
boshladik. Avvaliga u bir necha kun
hech narsa yemadi. Keyinchalik u
asta-sekin ovqat yeya boshladi. Biz

QUYON

(Hikoya)



Buvim ichkaridan chiqib, mushukni
haydab yubordilar va yana xonalariga
kirib ketdilar. Mushuk tomorqadagi
makkajo'xori ichiga kirib ketdi. Akam
uning orqasidan ergashdi. Men yolg'iz
qolishdan qo'rqib, akamning izidan
bordim. Makkajo'xori poyalarining
barglari badanimizga tegib, qichishtir-
ardi.

– Mushuk nimadir topdi, – dedi
akam va oldinga yugurib ketdi. Borib
qarasak, uzunligi bir quloch keladigan
ilon bir quyonchani bo'g'ayotgan ekan.
Akam uyga yugurib borib buvamni
chaqirib keldi.

Buvam shosha-pisha qo'lga tayoq-
ni olib chiqdi. Buvam ilonni o'ldirdi.
Chalajon bo'lib qolgan quyoncha
asta harakatga kelib, yurib ketdi.
Shunday qilib, quyonni yovuz ilon-
ning changalidan qutqarib qoldik.
Buvam boshimizni silab turib, shun-
day dedilar:

unga karam barglari va sabzi berdik.

Bir haftadan so'ng quyoncha ish-
tahaga kirib, biroz tetiklashdi. Yoniga
borsak, ovqat berishimizni sezib,
tipirchilab o'ynoqlaydigan bo'ldi.
Uyga qaytadigan kunimiz quyonchani
uyimizga olib ketmoqchi bo'ldim.
Ammo buvim rozi bo'lmadilar.

– Quyoningizni ko'rish bahonasida
bizdan ham xabar olib turasizlar! –
dedilar.

Biz rozi bo'ldik. Uyga qaytgach,
har haftada quyonimizdan xabar
olib turdik. Jonivor bizni ko'rganda
xaloskorlarini taniganday dikonglab
o'ynoqlar, biz bundan xursand bo'lib
zavqlanar edik.

Sarvar OTABOYEV,
Toshkent shahridagi tabiiy
fanlarga ixtisoslashgan
maktabning 4-sinf o'quvchisi


Turob YUSUF,
bolalar shoiri

YURTGA MEHRING ZO'R BO'LSA...

Yurtga mehring zo'r bo'lsa,
Ayromassan tilakdan.
Chunki Vatan, aslida,
Boshlanadi yurakdan.



TOSHBAQANING NIYATI



Buning gashti, shubhasiz,
Har narsadan ziyoda.
Dunyo bo'ylab sayohat,
Qilmoqchiman piyoda.

ONA QO'NG'IZNING ALLASI

Gumon sensiz dunyoda,
Zum halovat topmog'im.
Uzoq yillar, baxtimga,
Bor bo'l, mening oppog'im.



SPORT ZALIDAGI GURUNG DAN



Qay sohada bo'lmasin,
Hech taraf yo'q birlikka.
Shilliqurti amallab,
Ilintirdik turnikka.

FILCHANING SAVOLI

– Siz sichqondan qo'rqasiz,
Alam ta'sir etmasmi?
Savalashga shu uzun,
Xartumingiz yetmasmi?



BUVIJONIM



Uyimizning farishtasi o'zingiz,
Ipakdan ham muloyimdir so'zingiz.
Tabassumni xush ko'radi yuzingiz,
Chaqnaq turgan ko'zingizdan aylanay.

Siz'azizsiz, sevimlisiz bizlarga,
Pand-u hikmat kitobi siz qizlarga.
Baxtimizga kirib yuring yuzlarga,
Sizning shirin so'zingizdan aylanay.

Fotima NORMAMATOVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi
1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining
9-sinf o'quvchisi

ORZULARING USHALGAN KUNDA

Ko'zlarimda quvnaydi olam,
Dilga berar shodlik ifori.
Borliq bilan dillashgan odam,
Bu dunyoning tengsiz attori.

Balki menga atalgan yillar,
Ko'zlarimday marjon durafshon.
Balki g'amga qorishgan yo'llar,
Sabrim bilan mangu nurafshon...
Ammo oying o'rog'i o'tkir,
O'n besh kuni yorug'dir bunda.
Yorishadi dilda xavotir,
Orzularing ushalgan kunda.

Gulbahor OLIMOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
226-umumta'lim maktabi o'quvchisi

14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni tanlovining g'olibi, Xorazm viloyati, Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabining 9-sinf o'quvchisi Ziyoda SAPARBOYEVA.



ISHQI DILIM MAHLIYO ETGAN

O'z yurtini sevmok iymondan erur, Mard o'g'lonlar qalqon bo'lgan qo'rg'onim. Rizq-u ro'zi, nasibasi butun el, Jannatdir bog'laring, O'zbekistonim.

Jonin fido qildilar qancha bahodir, O'g'lonlar bo'ldilar qalqon. Zarra tuprog'ing-chun har nega qodir, Farzandlaring bordir, ey ona makon.

Noming bu shundayin sehrlil so'zki, Hayqirsam, olisga yetar ovozim. Madhingni kuylashga ojiz qalamim, Ojizdir qo'limda yangragan sozim.

Onamsan - sen menga jon ato etgan, Otamsan - bor mehring dilga jo etgan. Yurtim, o'chmas izlaringdan aylanay, Ishqi jon-u dilim mahliyo etgan!

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 13-umumta'lim maktabida yurtimizning turli sohalarida qator yutuqlarni qo'lga kiritgan faol yoshlar ishtirokida

BUGUNGI KUN QAHRAMONLARI

shiori ostida ochiq muloqot o'tkazildi.



Muloqotda belbog'li kurash bo'yicha uch karra jahon chempioni Farangiz Abdunabiyeva, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi Shahnoza Samatova, «Mehr-saxovat» ko'krak nishoni sohibi Rustamjon Qosimov, 13-umumta'lim maktabining direktori Xolnisa Shoyimova hamda viloyat «Kamalak» sardori Mushtariybonu Doniyorova, Madaniyat yo'nalishi sardori Marjona Ibodullayeva va ustozlar ishtirok etishdi. Uchrashuv qizg'in savol-javoblar ila ko'tarinki kayfiyatda o'tdi. Bunday uchrashuvlar yoshlarimizga motivatsiya beribgina qolmay, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari yo'lida ildam harakat qilishlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilsa, ajab emas. Biz yurtimizning mana shunday faol, vatanparvar, shijoatkor, fidoyi yoshlari bilan faxrlanamiz!

Diyorbek DONIYOROV, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchisi



VATAN MADHI

14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni Toshkent tumani 6-MTTda ham o'zgacha shukuhda kutib olindi.

«Tayyorlov» va «Katta» guruh bolalari «Vatan» musiqasi sadolari ostida zalga shaxdam qadam tashlab kirib kelishlari tadbir ruhiyatini oshirdi.

Tadbirda bolajonlar Vatanni tarannum etuvchi qo'shiq va raqslar ijro etishdi.

ZUMRADXON, musiqqa rahbari

IJODIY UCHRASHUV



Samimiy nigohlarni, sof tuyg'u va hayratlarni ko'proq bolalarda uchratarkansan.

Ulardagi qiziqish, ishtiyoq, ilmga bo'lgan tashnalik butun tashvishlarni unutib, o'tmishga - bolalik xotiralari qaytaradi. Tashqarida

qahraton tish qayrashiga qaramasdan, bahor nafasini tuygandek bo'lasan. Poytaxtimizning 262-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan ijodiy uchrashuv meni mana shunday taassurotlar bilan siyladi.

Maktab tarix metod birlashmasi o'qituvchilari Feruza Karaxo'jayeva va Fotima Rajabovalarning tashabbuskorligi, ijodkor o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashi ushbu maskanda o'z kasbining fidoyilari faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. MMIBRO' rahbari Barno Xo'jayeva «Tong yulduzi» gazetasi chinakam mahorat maktabidir, deya bot-bot ta'kidlab, o'quvchilarni gazetxonlikka chorladi.

- Biz o'qituvchilar maktab hayotini «Tong yulduzi»siz tasavvur qila olmaymiz. Ushbu sohada ish boshlaganimdan buyon birga hamkorlikda faoliyat yuritib kelmoqdaman, - deydi Fotima Rajabova.

O'quvchilar o'zlari yozgan she'r, hikoya va ertaklarni o'qib berdilar. Uchrashuv so'ngida O'zbekiston xalq shoiri M. Yusufning «Ulug'im-san, Vatanim» she'rini barcha birgalikda jo'r ovozda aytishdi va o'z ijod namunalarni gazetada chop ettirish uchun taqdim etdilar.

Husan TURSUNOV



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Quyida ta'riflari bayon etilgan nomlar chizma kataklaridagi «Qizil» so'zi bilan boshlanadi. Ularning to'liq atalishini topib, kataklarni to'ldirish orqali topqirlicingizni sinab ko'ring.

1. Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan cho'l. 2. Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari chegarasining Orqa Oloy tizmasidagi dovon. 3. Qashqadaryo viloyatining Hisor tog'lari janubi-g'arbiy yonbag'ridan boshlanuvchi suv yo'li. 4. Tojikistondagi Panj daryosining chap irmog'i. 5. Buxoro shahri yaqinidagi arxeologik yodgorliklar majmuasi. 6. Qozog'iston Respublikasidagi viloyat. 7. Navoiy viloyatidagi tuman. 8. Dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik begona o't. 9. Yevropa va Osiyoda tarqalgan baliqchilar

turkumiga mansub parranda. 10. O'rtaqishar qovun navi. 11. Kaspiy dengiziga quyiluvchi Erondagi daryo. 12. Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatidagi shahar. 13. Turkmanistonning Bolxon viloyatidagi shahar. 14. Asosan, daraxtda yashashga moslashgan qush. 15. Organizmdagi taom hazm qilish tizimining halqum bilan me'da o'rtasidagi qismi. 16. Vatanimizning barcha viloyatlarida manzarali o'simlik sifatida o'stiriladigan gilyoh. 17. Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi oltin koni.

Topshiriqni hal etgandan so'ng, chizmaning o'ng tomonidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali qatorlar bo'yicha o'qish bilan Turkiyaning shimoliy qismidagi daryo hamda boshqodoshlarga mansub ko'p yillik o't nomlarini bilib oling.

«QIZIL»LI NOMLAR TOPQIRLIK MASHQLARI

1					*	1-6	5-7	*
2					*	11-7	8-7	16-7
3					*	12-7	2-7	*
4					*	17-8	9-8	9-9
5					*	*	*	*
6					*	*	*	*
7					*	12-6	8-7	
8					*	11-7	14-6	
9					*	17-2	9-9	
10					*	5-7	12-8	
11					*	3-7	12-6	
12					*	*	*	
13							*	*
14							*	*
15							*	*
16								*
17								

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV

Pazanda qizga!

Aziz qizlarjon!
Bugun sizlarga mevali keks tayyorlashni o'rgataman. Bu keks tayyorlanishi oson, tez va yoqimli.

MEVALI KEKS

Kerakli masalliqlar:

- 200 gr sariyog',
- 200 gr shakar,
- 1,5 gr vanilin,
- 0,5 choyqoshiq qavartma,
- 4 ta tuxum,
- keragicha un,
- istalgan meva turi.

Ustiga quyish uchun qo'shimcha:

- 1 ta tuxum,
- 50 gr shakar,
- bir piyola sut.



Avval xona haroratida turgan sariyog'ga shakar, tuxumni solib, mikserda yaxshilab aralashiramiz. Keyin un, vanilin, qavartma solib, aralashiramiz. So'ng, tanlangan mevani solamiz (Xohishga qarab har xil meva solishingiz mumkin). Suyuq xamiri qolipga solib, 180°C da qizigan gaz pechiga 30 daqiqaga qo'yamiz, ungacha ustiga quyiladigan aralashmani tayyorlab olamiz. Sut, tuxum, shakar hammasini birgalikda mikserda bir xil ko'rinishga kelguncha aralashiramiz. 30 daqiqadan so'ng, keksni gaz pechidan olib, ustiga sutli aralashmani quyamiz va yana pechda 25 daqiqa pishiramiz.

Mana, keksimiz ham tayyor. Uni qolipdan tushirib, sovgach, likopchalarga kesib solishingiz mumkin. Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher S'ADULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bostirish xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy Ichiyasi, 30-uy. Indeks: 1000/1.
Chuxna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@uz | t.uz telegram: t.me/tongyulduzi | Adali - 2005
Buyurtma - V-42/7

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bo'na taboq.
Boshli kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel. /faks: (99871) 244-63-08